

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI
VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI

O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi 4- «A» kurs talabasi

Qo‘shaeva Nafisaning

O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI

fanidan

«Shukur Xolmirzaev ijodida umuminsoniy muammolar talqini»

mavzusida tayyorlagan

K U R S I S H I

NUKUS – 2015

R E J A :

1. KIRISH
2. ONA TABIAT VA UMUMINSONIY MUAMMOLAR TALQINI
3. BADIY NIYAT VA XARAKTER TALQINI
4. XULO S A
5. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

KIRISH

Shukur Xolmirzaev ijodi hozirgi zamon o'zbek adabiyotining yorqin va mazmundor sahifalaridan birini tashkil etadi. Ko'p qirrali iste'dod sohibi Sh.Xolmirzaev adabiyotning turli janrlarida rang-barang hikoyalari, publitsistik maqolalari, tarixiy esselari, realistik qissalari-yu ajoyib romanlari bilan hozirgi zamon adabiyotida munosib o'rin egallaydi.

Shukur Xolmirzaev 1940 yilning 24 mart kuni Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida dunyoga keldi.

U sevimli adabiyot o'qituvchisi H.Qulniyozov rahbarligida yosh shoirlar to'g'risidagi faol qatnashib, dastlabki she'rlar yozadi. 1953 yili 5-sinfda o'qiyotgan chog'ida yozgan «Shoir bo'laman» nomli birinchi she'ri munosabati bilan yosh Sh.Xolmirzaevga Q.Qulniyozov Boysun tuman gazetasida oq yo'l tilaydi, besh yildan keyin 1958 yili o'sha gazetada «Xatarli so'qmoqda» nomli birinchi hikoyasi bosilib chiqadi. «O'n sakkizga kirmagan kim bor» kitobiga yozgan «Doim izlanishda» nomli maqolasida adabiyotshunos Matyoqub Qo'shjonov Sh.Xolmirzaevning yozuvchilik iste'dodi o'sha birinchi hikoyasidayoq namoyon bo'lganligini qayd etib yozadi: «Bolalik, o'smirlik paytlarida hayotdan olgan tajribasi asar yozish uchun kamlik qilar, hayot taasurotlari esa hali etarli hazm bo'lmagan edi. Shu sababdan bu hikoya mavhumiyatlari, obrazini tasvirlashda, xususan, ularga individual buyoq berishga noaniqliklar bor edi. Lekin yosh muallifning kelajagidan darak beradigan badiiy parchalar ham yo'q emas edi unda. Agar o'sha vaqtlarda yosh muallifning bu hikoyasini o'qib ko'rgan gazetaxonlardan birortasi «shu yigitdan yozuvchi chiqadi» deb bashorat qilgan bo'lsa, xato qilmaydi.

Sh.Xolmirzaev asarlarida xususan mustaqillik davrida yaratgan asarlarida halqimiz tarixi va taqdiri masalalarini aniq va yorqin aks ettirib berdi. Bu masalalar adibning mustaqillikdan oldingi asarlarida ham o'z aksini topgan edi, lekin u davrdagi tasvir, ifoda yo'lini tabiiyki, ma'lum qoliplar ostida edi. Mazkur muammolar xususida Prezidentimiz ham o'z asarlarida shunday yozadi: «...noinsoniy g'oya xukmron bo'lgan mustabid tuzum o'zining boy mafkuraviy kuchini, ommaviy

axborot vositalarini, butun moarif tizimini ishga solib odamlar ongini keng miqyosda zaharlar edi. Ularning milliy va diniy tuyg'ularini qo'pol ravishda kamsitar, tarixiy haqiqatni buzib ko'rsatar edi. O'z ona tilini, milliy an'ana va madaniyatini, o'z tarixini bilmaslikka ko'plab odamlarning shaxsiy fojiasiga aylanib qolgan edi»¹.

Sh.Xolmirzaev o'zining asarlarida ana shu masalalarini moxirona aks ettirib bergan haqiqiy Vatan fidoyisidir. Chunki uning asarlaridagi qahramonlar o'zligini yo'qotgan rahbar xodimlari yoki yo'ldan adashgan yoshlar, oddiy qishloq kishilari sodda va qalbi pok, o'zbek xalqi misolida aks ettirilib, asar g'oyasiga ko'ra yozuvchi bu qahramonlar taqdiri orqali o'zining mavjud davr va hayot haqiqatlariga munosabat bildirdi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki Sh.Xolmirzaev adabiyotga, xususan, o'zbek nasriga juda katta yangi-yangi tamoyillarni olib kirdi.

Sh.Xolmirzaev asarlari xususan, hikoyalarining badiiy-uslubiy o'ziga xosligini aks etgan Sh.Daniyoro'va shunday yozadi: «tabiat muhofazasi mavzusida yaratilgan badiiy asarlardagi qahramonlar qaysi millatga mansub bo'lmasin, ularning ichki kechinmalari va orzu-intilishlarida umuminsoniy tuyg'ular o'z ifodasini topishi zarur». Sh.Xolmirzaev qahramonlari o'z hayotlarini tabiat bilan uyg'unlikda bilib, tabiatni asrab avaylash uchun jon dili bilan kurashadi. Bularning bari adibning hayotiy va ijodiy salohiyatining yuksak ekanligining o'ziga xos belgisidir.

¹ Karimov I. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. Toshkent, 1999. 5-bet.

ONA TABIAT VA UMUMINSONIY MUAMMOLAR TALQINI

Shukur Xolmirzaev ijodi hozirgi zamon o'zbek adabiyotining yorqin va mazmundor sahifalaridan birini tashkil etadi. Ko'p qirrali iste'dod sohibi Shukur Xolmirzaev adabiyotning turli janrlarda rang-barang badiiy asarlar yaratib, o'zbek adabiyoti xazinasini boyitgan. Adib o'zining rang-barang hikoyalari, publitsistik maqolalari, tarixiy esselari, realistik qissa-yu ajoyib romanlari bilan hozirgi zamon adabiyotida munosib o'rin egallaydi.

Sh.Xolmirzaevning o'zi e'tirof etishicha maktabda o'qib yurgan chog'lardayoq unda adabiyotga havas uyg'ondi. Toshkent davlat universitetining filologiya fakul'tetida bu havas yanada ortadi. Xuddi shu yillari Sh.Xolmirzaev badiiy ijod sohasida dastlabki qadamlarini qo'yadi. Uning dadil ijod yo'liga kirishida fakul'tetdagi tanqidchi Matyoqub Qo'shjonov boshchilik qilgan adabiy to'garak katta maktab vazifasini o'taydi. Universtitetda Shukur Xolmirzaev jahon adabiyotining eng yaxshi namunalari bilan tanishib, badiiy ijod sirlarini anglay boshlaydi.

Yozuvchi ijodida mavzular olami shu qadar keng va rang-barangki ularning har biri alohida tadqiq va tahlilga loyiq. Shulardan biri tabiat va inson mavzui muommasidir. Chunki Sh.Xolmirzaev o'z asarlarida ona tabiat mavzuiga alohida e'tibor beradi va unda ko'proq o'zi tug'ilib o'sgan Surxon kaloritini mohirona tasvirlab beradi.

Ma'lumki asar mazmuni va shakldagi qonuniyatlar o'z navbatidagi mavzu va g'oyada ham ularning uzviy birligida ham namoyon bo'ladi. Chunki badiiy asarlarning tasvir ob'ekti-hayot, tasvir vazifasi-tuyg'ular, tarbiyasi-quyulmadir.

«Adabiyotning mavzui butun tabiat, borliq dunyosi, insonning o'z ichki-tashqi dunyosida sezilib anglaganlaridir. Bir tomchi suvdan dengizgacha, bir uchqundan buyuk yog'ingacha, kichkina bir yaproqdan ulug' o'rmonlargacha nima bor esa, hammasi adib-yozuvchi uchun mavzu bo'larlik narsadir»¹.

¹ Fitrat A. Adabiyot qoidolari. Toshkent, 1995. 24-bet.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, hayot va insonga taalluqli barcha hodisalar adabiyotining mavzusiga asosdir: shu asosning eng mayda zarrachasida ham inson bilishi lozim bo'lgan, uning yashashi uchun zarur hikmatlar sirlar, mu'jizalar mujassamdir. «Bu cheksiz, chegarasiz dunyodirki, unda har bir yozuvchi o'z kuzatish va tahlil qilishiga, hayotiy tajribasi qiziqishiga hayajon va kashfiga, bilish va salohiyatiga ko'ra hikmatni, mu'jizani o'zicha kashf etadi va ana shunga munasabatini, fikrini maqsadini ochib beradigan mavzuni tanlaydi, to'g'rirog'i unga shiq qo'ydi. Niyat ham ishq ham yurakdan tug'iladi»².

Xuddi shunday yurakdan chiqqan mavzulardan biri bu Shukur Xolmirzaev ijodidagi tabiat va inson munosabati muammosidir. Bu munosabatlar haqida adibning o'zi iqrar tarzida yozgan ushbu so'zlaridan ham anglash mumkin: «men Boysun rayonida tug'ilganman. Boysun-tog'lik joy, o'n ikki yoshimda o'zim yolg'iz miltiq ko'tarib ovga chiqib ketardim. So'ngra, bu erda yashirishning xajavti yo'q. Qaysarroq edim... Lekin bitta narsani yaxshi ko'rardim, masalaning mohiyatini tushunishni». Bu so'zlardan anglashiladiki, 70-yillarning boshlarida ya'ni ijodiy printsiplari ham to'la shakllanib ulgurmagan paytda yosh yozuvchi voqealikni badiiy idrok etish yo'llarini o'rgana boshladi. U inson hayotini, yashash tarzini, abadiy tiriklik manbaini tabiat bilan uyg'unlikda, bog'liklikda, birgalikda deb biladi. Bu xulosaga u hozir Surxon elining olis avlod-ajdodi bo'lish qadimgi baqtriyalar hayot tarzini kuzatish asnosida keladi, bu o'lkaning ko'hna ibtidoiy xalqlari dastlab tabiatga sig'inishganini, uni ulug' bir ne'mat sifatida qadrlashganini anglaydi.

Yomg'ir yog'may qurg'oqchilik bo'lgan paytda ko'kdan yomg'ir tilab qo'shiq aytishlar, bahorning birinchi darakchisi bo'lmish boychechak chiqishi bilan bolalarning uyma-uy yurib xabar berishlari va qariyalarning eson-omon bahorni qarshilaganlari bois ko'zlariga shehni surib tavof qilishlari, navro'z quvonchlariga o'sha qadim davrlardan to hozirgacha, ayniqsa Surxondaryoda saqlanib qolganligib yozuvchining bolalik xotiralarini ham bandz etgani sezilib turadi.

² Umurov H. Adabiyot nazariyasi. Toshkent, 2002. 125-bet.

Yozuvchi bolaligida eshitgan qadimgi afsonalar mazmunida ham inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikda katta ma'no yashiringanini anglaydi: «Momoning Tiniqoy kampir haqida aytgan ertagining mazmunini keyincha chaqishga urinib ko'rdim...

Shundan keyin mening tabiatga-jonivorlar, parrandalar, hatto yirtqich hayvonlarga ham munosabatim o'zgarib ketib, ularni o'zimga qandaydir qarindosh deb biladigan bo'ldim. Gap shunda ekanki, ibtidoiy odamlar o'zlarini tabiatdan ajratmagan, balki uning bir bo'lagi, uzluksiz bir bo'lagi deb bilganlar. Shuning uchun ular tabiatdagi har bir shyoh har bir jonli jonivorda ham til bor, ular ham odamzodga o'xshaydi, bdeb o'ylaganlar. Shuning uchun hayvonlarning odamlarga yordami yoxud odamlarning hayvonlar bilan do'stligi haqida afsonalar to'qishgan. Shukur Xolmirzaevning «Tiniqoyning «ayiq eri» hasratida aytadigan qo'shig'ida ham insonning tabiatga yaqinligi ifodalanganini ko'radi.

Sh.Xolmirzaev jahonning mashhur yozuvchilari qatorida, ularga bo'ylasha oladigan darajada tabiat mavzusida takrorlanmas asarlar yaratdiki, bu yozuvchi ijodining alohida bo'rtib ko'rinib turuvchi bir qirrasidir. Mana shu sababdan ham katta imkoniyati tufayli tabiat qonunlari, hayvonlarning yashash tarzlari, har bir giyohning o'ziga xos xususiyatlari haqida puxta bilimga ega. Bu jihatdan jahon adabiyotidagi yirik hikoyanavislar ijodining ta'siri ham kattadir.

Shu nuqtai nazardan yozuvchining inson va tabiat mavzuidagi asarlari, xususan, hikoyalarini ko'zdan kechirsak, inson xarakterining qanchalar murakkab ekanligi, bu murakkabliklar, uning hatto, tabiatga munosabatlarida ham namoyon bo'lishini kuzatamiz.

«Kulgan bilan kuldirgan» hikoyasida Shukur Xolmirzaev tabiatni sevgan, uning go'zalligini boyligini o'z boyligi deb bilgan, unga etkaziladigan har qanday ozarni ko'ngliga olib, joni achiydigan oddiy maktab o'qituvchisi Ehson E'tibarov bilan sovxoz direktori Eshquvvatov o'rtasida yuz bergan voqeani tasvirleydi. Bu ikki xil xarakterli kishilarning hayotiga qarashlari bir-biridan tubdan farq qiladi, ularning tabiatga munosabatlari ham shunga mos. Hikoya boshida aytilgan fikrdan Eshquvvatov va Ehsonning ularni bir-biridan ajratib turuvchi aqidalari borshchini anglashiladi.

«Odamlarni faqat tirikchilik uchun harakat qiladi, deb o`ylaydigan kishilar ularning tirikchilik g`amidan yuksakroq tashvishlari ham borligini tushunmaydilar. Yo buning aksi: o`sha yuksakroq tashvishdagi odamlar faqat tirikchilik g`amida yurganlarga qandaydir past nazar bilan qaraydilar». Hikoya mana shu fikrlar bilan boshlanadi. Shundan ma`lum bo`ladiki yozuvchi qandaydir muhim bir ma`no-mohiyat kasb etuvchi ikki xil ko`z qarashga ega bo`lgan insonlarga munosabat bildirmoqchi.

Asardagi Eshquvvatov sovxoz direktori, o`qituvchi Ehson E`tiborov bilan ikki xil ko`z qarashga ega bo`lgan insonlar. Ularning har biri o`ziga xos xarakter xususiyatga ega, qisqasi ikkisi ikki olam. O`qituvchi Ehson E`tiborov sovxoz direktori oldiga kirib undan tog`dagi qushlarga yordam berish kerakligini agar iloji bo`lsa tog`ga chiqib qorda och qolayotgan qushlarga don sepish kerakligini aytadi va shu ishni amalga oshirishni iltimos qiladi. Yozuvchi o`qituvchi va sovxoz direktorining mulohazasini shunday tasvirlaydi:

«-O`rtoq Eshquvvatov, vaqtingizni olganim uchun uzru Lekin idorangizga kirishga majbur bo`ldim. Tog`dagi qushlar, parrandalar qirilib ketyapti. Kecha bir chorbozorchi keldi. Hurjuni to`la kaklik. Qaerdan olding desam kamarda tirishib qolgan ekan, terib oldim deydi. Bu qanaqa gap, o`rtoq Eshquvvatov! Axir, kakliklar, parrandalar-bizning boyligimiz, tabiatimizning ko`rki-ku shunday emasmi? Biz maktab bolalariga, qushlarni sevinglar, ardoqlanglar, deb o`rgatamiz. Bahorda qushlar in qo`yib bola ochsin deb o`qituvchilarga yashik yasashni o`rgatamiz. Bu narsani matbuotimiz ham targ`ib qiladi. Qolaversa, tabiatni qo`riqlash asrimizning masalalaridan bo`lib qoldi. Bundan habaringiz bordir albatta...

-Xo`p, xo`p. Qisqa qiling-dedi Eshquvvatov maqsad nima? Ketishim kerak. Ko`rdingiz raykom chaqirdi»¹.

Voqealar shu tarzda davom etadi. Va Ehson E`tiborov Eshquvvatovdan ikki sentner g`alla olib, o`z eshagida toqqa chiqib qushlarga sepib keladi.

Shunisi diqqatga sazovorki yozuvchi har ikki qahramonning ko`z-qarashlari o`ziga hos ichki dunyosini mohirona ochib beradi, ular nutqi, o`y-xayollari o`zining

¹ Sh.Xolmirzaev. Saylama. Kulgan bilan kuldirgan, hikoya. Toshkent, 2003. 149-bet.

ajoyib badiiy ifodasini topadi. Tabiat o`qituvchisi Ehson tog`dagi parrandalar sovuqdan va ochlikdan qirilib ketayotgani sababli ularni qutqarish chorasini aytib, «savobli ish»lar fe`liga yot bo`lgan Eshquvvatov uni «Vatanparvar» deb kamsitadi, bu ish uchun sovxoz haq olmasligini, uni bajarishga kuchi etmasligini bahona qiladi. O`z ahdidan qaytmaydigan Ehson qushlarga azboriy rahm qilganidan tog`dagi parrandalarga don sepib keladi. «... axir men tabiatshunosman, yuragim achiydi, tabiatga etkazilgan har bir zarar menga etkazilganday bo`ladi»-deb fikrlaydi u.

Ehson toqqa chiqib don sepib kelganidan keyin aniqrog`i shu kun kechqurun direktorning shofyori Ehson E`tiborovni Eshquvvatov yo`qlayotganini aytib uni mashinada olib ketadi. Yozuvchi shu erda ham o`ziga xos vaziyat yaratadi va har ikki qahramonning xarakteri va ma`naviy qiyofasini oshkor etadi. Yana asar boshidagi kabi ikki qahramonni muloqatga tortadi:

...Erkakcha gaplashaylik. Bizdan qaytmay qolmaydi. Hohlasangiz ertaga yana keling idoraga ikki tsentner emas, to`rt tsentner yozib beraman... Mana ilgari uzoq bo`lsak, endi yaqin bo`lib qoldik, nima dedingiz? Xo`p gap bunday, Esonboy uyga mehmonlar kelib qoldi ya`ni og`aynilar. Shular desangiz tog`li joyga keldik, kaklik eymiz deb turib olishsa bo`ladimi. Qo`y go`shti teshib chiqadimi deyman? Qani ko`nishsa. Oxiri Esonboy shofyorni sizga yuborishga majbur bo`ldim... Men, o`zingiz tushinib, besh-to`rtta kaklik opkelasizmi deb o`ylagan edim. Afsus ...endi, Esonboy, mashina sizni o`sha uyingizga olib boradi. Ko`p emas... o`nta demayman beshta kaklik berib yuboring. Xo`pmi uka? Hoy shopir mashinani zavodit qil!» (O`sha manba 200 bet).

Shu joyga kelganda kitobxon har ikki qahramonning asl qiyofasini to`la anglab etadi va ularga o`z munosabatini bildiradi. Asar qahramoni e`tibor shunday kishilar timsolini u hech qanday yaltoqlanishni, laganbardorlikni bilmaydi. Hatto sovxoz direktoriga «o`rtoq Eshquvvatov, past odam ekansiz» deyishdan o`zini tiyib turolmaydi.

Shukur Xolmirzaev bu hikoyada vatan go`zalligi boyligini umuman, tabiatga befarq bo`lmagan, uni sevgan kishilarni tashvishga solayotgan-tabiat boyliklarini

asrash masalasini ilgari suradi va bu masalaning mohiyati oddiy bir voqea tasviri orqali ko'rsatadi.

Yozuvchining «Jarga uchragan odam» hikoyasida qahramonlar o'rtasidagi to'qnashuv fojiaiy tus oladi. Hikoya qahramoni Islomning o'z kasbi bor, lekin u birinchi navbatda tabiatni sevadi, undagi har bir o'zgarish-harakatlarni zavq bilan kuzatadi. Shu boisdan tabiatning turli-tuman mavzularda yozilgan maqolalar e'lon qilishi tabiiy bir holdir.

Hikoyaning asosiy voqeasi Islom va Boysuntog' tabiati haqida fil'm yaratmoqchi bo'lgan shaharlik kinorejissyorning tabiatga munosabati haqida. O'z manfaat yo'lida tabiatga nisbatan ochko'zlarga munosabatda bo'lgan rejissyor tabiatni ham otasi, ham onasi, ham do'sti deb biluvchi «Tog' shaydosi» tomnidan jazolanadi.

BADIIY NIYAT VA XARAKTER TALQINI

Hayot haqiqatiga real ijodiy yondashishi insoniy ochib tashlash Sh.Xolmirzaev ijodida o`ziga xislatlarni ulug`lash shular bilan birga ijtimoiy turmushdagi mavjud kamchiliklarga xos ifodasini topgan.

Tabiat hodisalardan umuminsoniy g`oyalarni ifodalashda foydalanish jahon adabiyotida an`ana sifatida tobora rivojlanyapti. Ch. Aytmatovning Gursara, Ona bug`u, Qoranor kabi hayvonlar obrazlari Tanoboy, Mo`min, Edigey kabi ijodiy qahramonlarning insoniy sifatlarini, xarakter va qiyofalarini chuqurroq izohlaydilar. O`zbek adabiyotida bu usuldan foydalanib obraz yaratayotgan Shukur Xolmirzaev jonivorlar vositasida axloqiy muammolarni o`rtaga tashlash printsipli muvaffiyatli kelgani ko`rinadi.

«Shukur Xolmirzaev Abdulla Qahhordan so`z tejash, detallarga katta ma`nolar yuklash, qahramonlar ruhiyatida kechayotgan ziddiyat to`qnashuvlarni sodda va hayotiy qilib, ixcham tasvirlash, dialoglardan jonli manzara yaratilishi sirlarini o`rganadi. Biroq, biz ta`sirni faqat tashqi ko`rinishdan izlamaslik kerak. Bu ta`sirni qahramonlar ruhiy dunyosini aks ettirishdagi badiiy printsiplar mushtarakligidan izlamoq kerak.

Har bir yozuvchining o`ziga xos ijodiy kredosi bo`ladi. Shukur Xolmirzaevda bu kredo-tabiat. Uning qahramonlari o`zini qalbini chuqurroq anglash uchun tabiat bamisoli ilohiy kuch vazifasini o`taydi»¹.

Shukur Xolmirzaev hikoyalarini novella janri taraqqiyotining turli davrlariga ajratgan holda tekshirish qiyin. Gap shundaki, uning va tengdoshlarining hikoyalari biror nazariy muammani tadqiq etish imkoniyatini bermay, ko`proq ularning individualligini namoyish etadi. Ularning har bir asarida ular ijodiy manerasining xarakterli xususiyatlari namoyon bo`ladi. Masalan, Sh.Xolmirzaev yaratgan xarakterlar o`rtasidagi kontrakt kuchli bo`lib,

¹ XX asr o`zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, O`qituvchi. 1999.

u ba`zan («Yosuman», «Kulgan bilan kuldirgan» hikoyalarida) dramatik jarang kasb etadi. Sh.Xolmirzaev bunday obrazlarni tantanavor sharoitda emas, oddiy, kundalik voqealarda ko`rsatadi va ular xarakterining qirralari bunday vaziyatda ochiqdan-ochiq ko`zga tashlanadi.

«Kulgan bilan kuldirgan» hikoyasidagi maktab mualimi Ehson E`tiborov bilan sovxoz direktori Eshquvvatov «Yosuman» hikoyasidagi rassom Qo`ziboy, uning xotini Afruza, Qo`ziboevning qishloqdan kelgan do`sti Xudoyor bilan uning xotini Norbibi turli sayyoralardan kelgan kishilarga o`xshaydi. Bir tomonda, tog`larda sovuqdan va ochlikdan halok bulayotgan qushlar haqida qayg`urayotgan biologiya o`qituvchisi, ikkinchi tomonda, shu qushlar uchun berilgan ikki tsentner bug`doy evaziga o`qituvchidan beshta kaklikni talab qiluvchi sovxoz direktori. Ularning psixologiyasi bir-biriga tomoman zid. Shuning uchun ham Eshquvvatovning ablah ekanligini tushungan muallim unga qarab, «Siz past odam ekansiz...», -deydi.

«Yosuman» hikoyasida bundan ham ayanchlik holni ko`rasiz. O`z xotini bilan qishloqqa kelgan Qo`ziboy do`sti Xudoyorxonning sovuq munosabatini ko`rib, «menimcha, Xudoyorxonni kimdir buzibdi. Ha-ha. Meni unga yomonlagan birov, seniyam... Ha yomon odamlar yosumanlar bor hayotda! Deydi. U Xudoyor bilan Norbibi shaharga borganda, ularni to`kin-sochin dasturxon bilan kutib olmaganidan (ular juda kech kelgan edilar) qattiq ranjiganlarini va shu vajdan ularga e`tibor bermayotganlaridan bexabar edi. Xullas bu hikoyada ham meshchanlar bilan ziyolilar psixologiyasi o`rtasida o`zaro to`qnashadi. Sh.Xolmirzaevning qator hikoyalari ana shunday fojiaviy sharoitdagi to`qnashuv asosiga quriladi. Yozuvchining g`oyaviy niyatiga ko`ra, «Yovvoyiy gul» hikoyasi shahardan ishlash uchun o`z qishlog`ini tark etgan kishi hayotining ramziy yakuni bo`lishi lozim edi. Vosit (hikoya qahramoni shunday deb ataladi) yangi joyga kelibdiki, ishi yurishmaydi: na ishd, na turar

joyida halovat bor. Uning yakkayu-yagona quvonchi o'zi ijarada yashayotgan xonadondagi gullar edi.

Og'ir kasallikdan keyin shahar chetiga qilingan Safar vositda qadrdon qishloqqa borish istagini uyg'otmaydi. Holbuki u erda o'ziga tanish va aziz manzaralarni ko'rgan bolalik xotiralarini, qishlog'ini, yoronlarini eslagan edi. U ana shu safardan yovvoyiy gul ko'chatini olib kelib, boyagi gulzorga ekadi. Ammo bu gulni qanchalik parvarish qilmasin, u so'lib xazon bo'ladi. Vosit o'zi uyiga ketishga qaror qiladi. Unda ijod bilan shug'ullanish, kitob yozish istagi bor edi. Ammo uning bu istagi ham yovvoyiy gul singari begona muhitda xazon bo'ladi.

Sh.Xolmirzaevning bu lirik hikoyasida turmush va tabiat manzaralari mehrona chizilganiga qaramay orzu qilgan tuyg'ular tug'yonini ifodalay olmagan. Muallif materialdan chetga chiqib, uni falsafiy umumlasha fikr bilan nurlantira olmagan. Dabdurustdan topilgan yovvoyi gul obrazi tufayli qahramonning kechishi voqealarni qayta idrok etishi esa ishonarli chiqmagan.

Sh.Xolmirzaevning uslubi ba'zan fikr va uning mujassamlanishi turli qatlamlarga ega bo'lib qoladi.

«Jarga uchragan odam» hikoyasining qahramoni Islom tabiatini nihoyatda sevadi. Ana shu sevgini tasvirlovchi sahifalar samimiy tuyg'u bilan to'la. Tabiatning bu ertakdek go'zal joylarini suratga olish uchun kelgan kinorejissyor o'ziga hamroh bo'lishini so'raydi. Ammo fojia yuz beradi: kinorejissyor dafatan paydo bo'lgan ayiqni otib qo'yadi. (xolbuki, unga ayiqni odamzodga hujum qilmasligi aytilgan edi). O'q ovozi yangrashini bilan Islom miltiqning qo'ndog'idan shunday turib yuboradiki, natijada kinorejissyor jarga qulab tushadi.

Hikoyanavis hohlaganmi yoki yo'qmi hikoyada insonning halok bo'lishi emas, balki tabiatdagi uyg'unlikka qo'pol munosabatda bo'lish asosiy fojia bo'lib tuyuladi.

Sh.Xolmirzaev hikoyalarining qahramonlari, shubhasiz, murakkab, o`ziga xos va turli maxrajga ega bo`lgan xarakterlardir. Yozuvchining bunday kishilarga bo`lgan qiziqishi uning hikoyalaridayoq ko`zga tashlangan edi.

Qahramonning xarakterini aniq hayotiy kolliziyada ochish iqtidoriga ega bo`lgan Sh.Xolmirzaevning o`ziga xos iste`dodi «Bahor keldi» hikoyasida ayniqsa yorqin ko`rinadi.

Hikoyada tasvirlangan voqealar dastlab ohista oqadi. Ammo epizoddan epizodga o`tgan sayin asar zahirida yotgan fojia nish ura boshlaydi.

Hikoya qahramoni Mastura dastlabki uchrashuvda kitobxonda ilk tuyg`ular uyg`otadi. U maktabda o`qiydi, vafot etgan otasini eslab, kuyunadi. Qishloqdagi barcha kishilar uni yupatishga, unga-yaxshi so`z aytishga intiladilar. Ammo ba`zat nojo`ya zaminga tushgan iliq so`z ham achchiq meva berar ekan. Mastura bora-bora odamlar uni hurmat etishlari, unga g`amxo`rlik ko`rsatishlari lozim, deb o`ylaydi. Unda paydo bo`lgan xudbinlik asta-sekin shafqatsizlikka o`sib chiqadi. U ezgu niyatli, pokdil kishiga turmushga chiqib, kundan-kunga yangi-yangi davolar o`ylab topadi va erining tinka madorini quritadi.

Hikoya Mastura erining o`limi bilan tugaydi: u xotining injiqliklari orqasida tepalikka chiqib yangi tandir uchun tuproq qazimoqchi bo`ladi-yu, chuqur uraga yiqilib tushadi. Bunday fojiali xotima hikoyaning birinchi saxifalaridanoq tayyorlangan edi. Shu tarzda asarda loqaydlik, xudbinlik, shafqatsizlik, ezgulik va ziyokorlik ustidan tantana qiladi. Hikoyaning samimiy ichki nafasi kitobxonni hayajonlantiradi. Bu nafas aniq adresga ega. Hikoyadagi salbiy qahramon kechagina og`zidan lam chiqmaydigan va huquqsiz bugun esa teng huquqlik, erkinlik tushunchalari suiste`mol qiluvchi ayoldir. Ehtimol kimdir konfliktning mubog`ali echimi, xotimaning «notipligi» uchun muallifni ayblashi ham mumkin. Ammo gap, qolaversa, qahramonning xalok bo`lishda emas, balki uni halokatga olib borgan kuchning dahshatli ekanidadir.

Shu ma'noda Sh. Xolmirzaev hikoyasida ifodalangan raddiya kuchi ijobiy hodisalar tasviriga nisbatan gumanistik axloqiy normalarni ko'proq tasdiqlashi mumkin.

Hozirgi milliy hikoyanavislar tuyg'ularning jilovsiz g'alayoni davrning aniq tayin ko'rinmagan tendentsiyalarini idrok etishga urinmoqdalar. Bu vazifa esa san'atkordan iste'dod va mahoratni baravar talab etadilar.

«Sharoit tipikligi»ni yangicha tushunish, «hayot oqimi»da, kundalik-mashiy vaziyatlarda inkishof bo'luvchi xarakterga tayanish o'zbek hikoyanavisligida sezilarli uslubiy siljini yuzaga chiqaradi. Agar ko'plab milliy hikoyanavislarning uslubiy izlanishlariga xos bo'lgan umumiylikni belgilamoqchi, aftidan, eng avvalo, tasvirning jonli til uchun xarakterli bo'lgan tabiiyligiga, rang-barang hayotiy buyoqlarni tasvir doirasiga olib kirishga qaratilgan intilishni qayd etish zarur bo'ladi.

Sh.Xolmirzaev hikoyalarida tadqiq etilgan inson va tabiatning o'zaro aloqasi malakasi yozuvchi ijodiy evolyutsiyasining deyarli barcha bosqichlarida asosiy o'rinni egallaydi. Bunday hikoyalarning bir qismida tabiatni asrab-avaylash haqida gap ketsa, boshqa bir guruhida tabiat go'zalliklarini tasvirlash bilan birga, inson va tabiat munasabatlari go'zalligini tarannum etuvchi asarlari ko'proq o'rinni egallagani ko'rinadi, chunki yozuvchi insonda tabiatga munosabat orqali yaxshilikni, ezgulikni, katta bir mehri ko'rishni istaydi. Bu hol, ayniqsa, inson va hayvonot dunyosi, inson va o'simliklar olami tasvirida yaqqol ko'rinadi Sh. Xolmirzaevning «Ot egasi», «Podachi» hikoyalarida insonning hayvonning insonga sadoqatini ko'ramiz.

E'tibor qilgan o'quvchi yozuvchining aksar hikoyalarida ayni mavzuga murojaat etilib, tabiatga aloqador gaplar katta ijtimoiy-ahloqiy ma'naviy ma'rifiy muammolar, inson va uning taqdiri, tarbiyasi haqidagi falsafiy fikrlar bilan tutashib ketganligini ko'radi. Inson tabiatdan tirqishsiz devor orqali ajralib turmaydi, barcha borliq, mavjudot biri ikkinchisidan oladi yoki beradi. Ushbu

printsip nafaqat inson va tabiat o`rtasidagi munosabatda amal qilinadi, balki bu tuyg`u inson va hayvonot dunyosida ularning o`zaro munosabatida ham ko`rinadi. Bunday uzviy bog`liqlikni aks ettirgan hikoyalarda bir dunyo bilan ikkinchi dunyoli bir olam bilan ikkinchi olamni vafo, sadoqat, mehr-muhabbat tushunchalar bog`lab turadi.

Sh. Xolmirzaevning «Otgo egasi», «Podachi» hikoyalarida esa insonning tabiatga, hayvonotga mehr-muxabbati san`atkorana tasvirlanadi. «Ot egasi» (1971) ning qahramoni Inod hayotining yagona ovunchog`i qora bayrsiz tasavvur qila olmaydi. Chunki bir fojia tufayli ikki farzand va xotinidan ayrilgan Qahramon yolg`izlikda shu otiga suyanadi, g`amlarini biroz unitadi. Shuning uchun ot unga ota-onasi qishlog`i va maktabi kabi qadrdon bo`lib qolgan. O`z amalini suiste`mol qilgan egamberdi millioner hurmat nomidan ish ko`rib, qorabayrni o`ziniki qilmoqchi bo`ladi. Aziz tuyg`ulari, huquqi paymol etilgan. Inod qadrdon otini o`z quli bilan otib tashlaydi. «Podachi» (1975) hikoyasida esa Ostonaqul chol kolxozning ho`kizini harom o`ldirib qo`yadi; bu ishning oqibati yomon bo`lishiga tushunib etsa-da, ko`p vaqtlar birga bo`lgan, o`zi bilan yonma-yon ter to`kkan hayvonning bo`g`ziga pichoq tortishga qo`li bormaydi. Kolxoz kattalari cholning gunohini muhokama qilar ekanlar, unga bir-biridan bema`ni ayblarni taqaydilar, bo`lim boshlig`i: «Shartta so`yvorish kerak edi», desa, zootexnik «Kechasi o`lgan kechasi! O`zim jigarini erib ko`rdim-ku, savigan ekan. Boboy uxlab qolgan», -deydi. Ular ho`kiz jon berayotgan mahalda ham chol uning tepasida o`tirganini, ammo so`yishga qo`li bormaganini bilmaydilar, bilganlarida, balki uni aqldan ozganga chiqararmidilar. Podachi ham o`zini oqlab o`tirmaydi, ho`kizning xunini to`lashga rozi bo`lib, idoradan chiqib ketadi. Shu bilan hikoya tugaydi, ammo Ostonaqul cholning taqdiri bizni qiziqtiradi. Uzoq o`ylatadi. Ruhiy kechinmalar oqimni tasvirlashda yozuvchining qattiq-qo`liga, yoiq ruhiy taxlilga o`rin bermaslik, izohlarning yo`q darajada ekanligi asarga olis munosabatni taqoza

qiladi; hikoyaning butun qimmatini o'sha, yozuvchi tomonidan aytilmay qolgan, kitobxon esa mavjud vaziyatlardan payqab olishi lozim bo'lgan gaplarda. Tasvirda qisqalikka, soddalikka intilgan yozuvchining shu kabi hikoyalarda qahramon ham ortiqcha hatti-harakatlardan hali o'quvchi Inodni ham podachi cholni ham o'ziga yaqin oladi, ularning dilidagi dardli tuyg'ularni, hayvonga bo'lgancheksiz mehrini qalban his qila oladi.

«Podachi»da Ostanaqul cholning hatti harakatlari mo'min-qobilligi, rahbarlar nima desa bosh egib rozi bo'lish holatlari o'quvchi yodiga beixtiyor A.Qahhorning mashhur «O'g'ri» hikoyasini tushuntiradi. Asarning quyidagi kul'minatsion o'rni yuzaki qoraganda shunday fikr tug'diradi:

«Bo'lim boshlig'i inqilob o'rnida turdi: -Ota, gap tomon. Ho'kizning pulini to'laysiz!-U atrofdagi kishilarga ham bir-bir qarab oldi. -Qasddan o'ldirilgan deb hisoblanadi... Kelishdikmi ota?

Ostanaqul chol sekin boshini ko'tardi.

-Xo'p, o'g'lim, to'laymiz.

-Kechiktirmang faqat! Kambag'al emassiz, belingiz baquvvat, qarindosh urug'laringiz bor. Kampiringizning ham yig'ib qo'ygani bordir? Shunday bo'lsin... Majlis tamon!».

Rahbarlar masala mohiyati bilan zarracha qiziqmay oddiy bir mehnatkash podachining bir ho'kiz sabab qarz olib, hatto kampirning o'limligiga yiqqanini ham tovon to'lashga majburlashlari, uni xonavayron qilishlari haqiqatdan «O'g'ri»dagi qozi mingboshilarni eslatadi. Lekin hikoyadagi podachi obrazi butunlay boshqacha talqin qilingan. Adabiyotshunos X.Karimov «Podachi»da «...Jur'atsizlik, ikkilanish masalani tezda hal qilmaslik, kimdandir madad kutish, avvalam bor, kishining o'ziga katta zarar keltirishi ochib beril»ganligini aytib, podachi xarakteri mohiyatini, yozuvchi g'oyaviy maqsadini tahlil qilib yozadi: «Ostanoqul cholning hatti-harakati, hamma narsaga ko'nishish, muteligi A.Qahhorni Qobil bobosini yodga soladi. Qobil boboni shu qadar

ayanchli, abgor, jur`atsiz, mute qilgan mustamakachilik bo`lsa, Ostanaqul cholni shu kuyga solgan dunyoda eng insoniy tuzum deb jar solingan sotsialistik jamiyatdir. U shu qadar muteki, ho`kiz yo`qolmagan o`lgan. Uning isboti sifatini davlatga terisini topshirish mumkin. Qonun shuni taqoza qiladi. Lekin shunga qaramay bo`lim boshlig`i «Ho`kizning pulini to`laysiz»,-desa xo`p deydi. U tuzumdagi rahbarlar ham xuddi «O`g`ri»dagi ellikboshi, pristavlarning o`zi edi. Faqat nomi o`zgargandi, xolos. Hikoya Sh. Xolmirzaev xuddi mana shu holatni 70-yillardayoq ustalik bilan ochib tashlagan. Bu hol so`zsiz adibning jasoratidan dalolatdir»<sup>1</sup>. E`tibor beraylik, agar Ostonqul «ayanchli, abgor, jur`atsiz, mute bo`lsa u davlatga tegishli ho`kizning harom o`lishiga qarab tdravermidi? Bundan tashqari, podachi va Qobul bobo harakterlari o`xshash bo`lsa-yu, faqat ular boshqa-boshqa tuzum odamlari bo`lsa, Sh. Xolmirzaevning hikoya yozishdan maqsadi nima, yozuvchi bilan qanday gap aytmoqchi yoki asarning yangiligi nimada degan savollar o`z-o`zida kelib chiqadi. Shunday tahlil oqibatida hikoya orqali sotsiallik jamiyatda Qobil bobo «madali» sifatida podachi obrazini yaratgan. Sh Xolmirzaevning ijodiy «jasorat»i ham ko`rinmay qoladi.

Shubha yo`qki Sh. Xolmirzaev o`ziga xos bo`lgan podachi yaratdi va adabiyotga yangi qahramon, yangi xarakter olib kirdi. Bu yangilik, avvalo, hikoyaning «O`g`ri»ga o`xshab yozilishida emas, balki asar mavzusi va talqinida ko`rinadi. «Podachi hikoyasi tabiat va inson mavzusiga bag`ishlangan asardir. Insonning tabiat bilan uyg`unligi, uning hayvonga mehr-muhabbati, hayvonga o`z qadrdoni tirik jon sifatida munosabatda bo`lishi hikoyaning asosiy mazmunini tashkil etadi. Shu orqali yozuvchi insonning ma`naviy komilligini ko`rsatadi. Inson va tabiat o`rtasidagi tabiiy bog`liqlik har qanday tuzumning temir qonunlaridan ham yuqoriroq ekanligini qalbi mehrga, sadoqatga to`la podachi xarakteri orqali ko`rsatiladi. Podachi tilda itoatkor

¹ Karimov. H. Sh. Xolmurzaev. Ijodiy portret T. Qatartol-Kamolot, 1999. 13-bet.

bo'lsada, amalda mustaqil kishidir. Unga o'z qadrdoni ho'kizning bir umrlik og'ir mehnatini eslatuvchi bo'yinturuqning izlari qolgan bo'g'ziga pichoq tortib vijdoni qiynalganidan ko'ra, o'z ajali bilan o'lgan ho'kiz haqini to'lash ming chandon oson. Podachi Qobil boba kabi mute, jur'atsiz emas, aksincha, u o'z niyatiga etdi va o'zida zarracha achinish hissi bo'lmagan «bo'lim kattalari»dan ma'naviy ustun keldi.

«Podachi» hikoyasining «O'g'ri» asariga yaqinligi sababli esa uning qahharona uslubda yozilganligidir. Adabiyotshunos B.Nazarov, Sh. Xolmirzaev hikoyasining yaratilishiga A.Qahorning «O'g'ri»si kuchli ta'sir etganini aytib yozadi. «Yaqinlik ikkala hikoyada hal gap ho'kiz to'g'risida borganida emas, albatta. Gap badiiy mantiq yaqinligi va mushtarakligida, xarakter yaratish borasida ustoz adib ijodiy printsiplarining shogird tomonidan rivojlantirilishida»¹. Demak, har ikki hikoyaning mushtarak jihatlari detallar tanlashda, qahramon hatti-harakatlarining ular ichki dunyosiga mosligida, tasvirda maksimal soddalik va qisqalikka intilishda ko'rinadi. «Shukur Xolmirzaev Abdulla Qahordan so'z tejali detallarga katta ma'nolar yuklash, qahramon ziddiyatida kechayotgan ziddiyat, to'qnashuvlarni sodda va hayotiy qilib, ixcham tasvirlash diologlardan jonli manzara yaratish sirlarini o'rgandi. Biroq, bu ta'sirni faqat tashqi ko'rinishdan izlamaslik kerak. Bu ta'sirni qahramonlar ruhiy dunyosini aks ettirishdagi badiiy printsiplar mushtarakligidan izlamoq kerak.

Hikoyada qahramona tasvir usuli qahramonlar tashqi ko'rinishini tasvirlash orqali ularning ichki dunyosini ochishida namoyon bo'ladi:

«Chol eshik yaqinida boshini g'am qilib, egilib turibdi. Og'irligini u yog'idan-bu yog'iga soladi. Odob yuzasidanmi, hassamini dahlizga qoldirib kirgan.

-Xo'sh, ota, aybingizni bo'yingizga olasizmi?

¹ XX asr adabiyoti tarixi. Toshkent, «O'qituvchi». 499-bet.

Chol to`rda, stol ortida o`tirgan gardig`um, elkador bo`limi boshlig`iga manglayi ostidan qaradi:

-Ha endi aybdormiz-da,-dedi.

Jikak peshonasidan iyagiga qarab silaganda qo`l biron-bir «burun» otli to`siqqa, yo «ko`z» degan chuqurgacha tushmay o`tayotgan yapoloq zootexnik To`raboy irg`ib turdi:

-Aybdorman degani bilan qutilib ketmoqchimi? Men talab qilaman ola xo`kizning pulini to`lasin!-To`raboy joyiga o`tirdi.

Bo`lim boshlig`i kir bo`lib ketgan kolaminka kiteli yoqasidan qo`lini ichkariga solib, go`ltdor yuzi tirishganicha, gardanini qashidi:

-E, attang-dedi keyin elkasini qimirlatib. Kuchdan qolibsiz-da, otam?-cholga tikildi u. Biz sizga ishongan edik. Axir kasal ekanini kunduz kuni payqagan ekansiz, shartta so`ymaysizmi? Unda buncha gap-so`z ham yo`q edi.

Ko`rinib turibdiki, hikoyada qahramonlarning tashqi ko`rinishi gapirish ohanglari o`zlarini tutishlari ham ustoz adib yo`lini eslatadi. Biroq hikoyada bosh qahramon-podachi chol ruhiy dunyosida Qari ho`kiz kechmishining alohida o`rni bor. Podachi chol obrazi mohiyatini ola ho`kizsiz tasavvur qilish mumkin emas. Ular bir butunlikning ikki tomonini tashkil etadi. Ya`ni mushtarak bir obraz sifatida namoyon bo`ladi. Qari ho`kiz hayoti har doim podachi ruhiy dunyosiga ta`sir qilib turadi. Yozuvchi podachi hayoti, uning yoshlik yillari haqida hech nima demaydi lekin uning sovxoz uchun bir umr ter to`kib halol mehnat qilgani ola ho`kiz haqidagi quyidagi parchadan anglashiladi:

«-Chol, he, burnog`i yil bir hafta hupdan chiqmagan ho`kiz shuqda a?

Podachi xotiniga ko`zlari kirdayib boqdi, so`ng quruqshagan lablarini yalab, yiroqda qabarib turgan Oytumshuq tepaligi tarafga qaradi.

O`tgan yilgacha sovxoz Oytumshiqning ustiga bug`day ekar edi. U er lalmikor holda u tepaga na mashina, na kombayn chiqa olar, erni qo`lida

haydab, donni ham ho`kizlar tuyog`ida yanchib olishardi». Bu ishdan keyinchalik foyda ko`rmagan sovxoz ho`kizlar mehnatidan voz kechib, ularni semirtirib go`shtiga topshirishga qaror qilishadi. Keksa ola ho`kiz bexosdan kasallanib o`layotganida, so`yishga qo`li bormagan cholga bo`lim boshlig`ining «-g`, attang kuchdan qopsiz-da? Degan kesatig`i podachi va ho`kizga nisbatan ularning bir xil munosabatini ko`rsatadi. Sovxoz kattalari ham ho`kiz ham podachining bir umrlik halol mehnatidan foydalanib, endi qarib kuchdan qolganda, yaroqsizga chiqarib, birini go`shtga tayyorlasa, ikkinchisining ko`p yillik xizmatlarini inobatga olmasdan tovon to`lashni talab qiladi.

X U L O S A

O`zbek nasri taraqqiyotini izchil kuzatganda o`ziga xos ijodiy tamoyillari shakllangan adiblar u qadar ko`p emasligini anglash mumkin. Abdulla Qodiriy, Oybek Abdulla Qahhor kabi betakror iste`dod sohiblari qatoriga boshqa zamondosh yozuvchilardan dastavval Shukur Xolmirzaevni qo`yishiga uning asarlari, xususan birgina hikoyalarining o`ziyoq adabiy dalil bo`lib xizmat qiladi. Sh. Xolmirzaevning o`ziga xos uslubga ega yozuvchi ekani barchaga ma`lum. Tabiiyki, bu betakror adabiy uslub asardan asarga o`sib, taraqqiy topgan va har bir burilish nuqtasida u yangi sifatlar kasb etib mukallashib borgan.

Shukur Xolmirzaev asarlarida tasvirlangan hayot materiali o`ziga yaqin, qahramonlari o`zi tug`ilib o`sgan tog`, dasht, qishloq odamlaridir. Bu odamlar xarakteridagi o`ziga xos xususiyatlar ularning kundalik turmush tarzidagi oddiy voqealar orqali ko`rsatiladi. «Men avtorning o`zidan uzoq mavzuda yozishga qarshi emasman, -deydi yozuvchi. O`ziga yaqin narsa hamisha «yangi» bo`ladi, adabiyotni boyitishga qodir yozuvchi uchun esa, ayni muddao...».

Yozuvchi o`zining «Hikoya haqida» nomli maqolasini ijodkor o`ziga xosligining «shakllanish» davriga bag`ishlangan edi. Maqolada Shukur Xolmirzaev hikoya janrining klassiklari deb to`rtta ulug` adibni sanash bilan kifoyalanadi. Bular A.Chexov, Isen London, R.Pagor va A.Qahhor. Yozuvchi bu hikoyanavislar ijodini o`qib-o`rganish asosida quyidag xulosalarga kelgan; «Men Chexov domlada hikoyada xarakter-fe`lu atvori tirik odam qanday aks etilishini ko`rib hayratda qoldim... Ammo Jek Londonning Chexovdan farq etib, kezi kelganda o`zi tasvirlagan, kuchli, olijanob qahramonlarni sevishini baralla aytishi, hatto uni o`ta bo`rg`tirishi ham menga ma`qul tushdi. Demak, chin... hikoyada yozuvchi, kezi kelganda, qahramonlarga munosabatini

bekitmasa ham bo`laveradi... Tagorni o`qiganimdan keyin hikoyada chuqur bir ma`no bo`lishi kerak, degan xulosaga keldim...»¹

Sh. Xolmirzaevning ijodida tabiat va inson munosabatlar alohida diqqatga sazovor mavzulardan biridir. Adib asarlarida tabiatga «o`lja» sifatida qarovchilar, turli hodisalar girdobida o`zlari ona tabiatning «o`lja»siga aylanadi, undan manfaat kutib, uning tabiiyligiga xiyonat qilgan qahramonlarning o`zlari ham mana shu xiyonatning qurboni bo`ladilar. Sh. Xolmirzaev ijodida tabiat o`z holiga bir dunyo, unga inson aralashuvi bilan dunyo boyishi va aksincha ayrim jihatlari emirilishi mumkin. Insonning insonligi ham tabiatni bir butun hamda saqlay olishda ko`rinadi. («Jarga uchragan odam», «Podachi», «Omon ovchining o`limi»).

Inson va tabiat Sh. Xolmirzaev hikoyalarining mehvari mana shu ikki cheksiz dunyo uyg`unligiga tayanadi. Buni «Hayot adabiy» to`plamidagi tabiatga yozuvlarga munosabatda bo`layotgan g`addor kimsa qiyofasini aks ettirilgan «jarga uchragan odam», ne-ne azob uqubatlarga qolib, eshakda qorlarga botib, tog`dagi och kakliklarga don olib boruvchi fidoyi maktab o`qituvchisi Ehson bilan uning butkul teskarisi, mehmonlarga damlanajak oshga, ana shu kakliklar go`shtidan bosish payida yurgan sovxoz direktori-Eshquvatovning basharasi ochib tashlangan. «Kulgan bilan kuldirgan»; Tabiatdan bebahra yashash, uni his etmaslik, unga hamnafas bo`lmaslik insonning tuyg`ularini o`tmaslashtiribgina qolmay, ayirib qo`yishi mumkinligi falsafasi ifodalagan «Oy yorug`ida» kabi hikoyalarida ko`rishimiz mumkin.

¹ Xolmirzaev Sh. Hikoya haqida. // Sharq yulduzi. 1971. 1-son. 24-bet.

A D A B I Y O T L A R

1. Karimov I. O`zbekiston XX asrga intilmoqda. Toshkent, 1999.
2. Karimov I. Istiqlol va ma`naviyat. Toshkent, 1994.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent, 1999.
4. Doniyorova. Sh. Davr va qahramon muammosiga doir // O`zTA. 1999 №3.
5. Karimov. H. Shukur Xolmirzaev. Ijodiy portret. Toshkent, 1999.
6. Mirzaev. S. Hayot va adabiyot. Toshkent, 2001.
7. Normatov. U. Umidbaxsh tamoyillar. Toshkent, 2000.
8. Normatov. U. Nasrimiz an`analari. Toshkent, 1978.
9. Normatov. U. Bugunning hikoyalari // Jahon adabiyoti. 1993, №3.
10. Umurov. H. Adabiyot nazariyasi. Toshkent, 2002.
11. Fitrat. Adabiyot qoidalari. Toshkent, 1995.
12. Xolmirzaev. Sh. Saylanma hikoyalar. Toshkent, 2003.
13. Xolmirzaev. Sh. Abdulla Qahhor saboqlari // O`zbek tili va adabiyoti 1987 №4.
14. Xolmirzaev. Sh. Komil inson orzusi yoxud adabiyotning ibrat yaratish ma`suliyati. O`zAS 2001.
15. Xolmirzaev. Sh. Hikoya haqida // «Sharq yulduzi», 1971. №1.
16. Xolmirzaev. Sh. Yozuvchilikning maktabi yo`q // «Yoshlik», 1993. №10.
17. Xolmirzaev. Sh. Bodom qishda gulladi. Toshkent, 1986.
18. Shermuhammedov. P. Iltimos davomini yozing // «Sharq yulduzi» 1972 №3.
19. Hammualiflar: XX asr o`zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1999.
20. Hamidova.M. Ruhiyatdagi inqilob // «Sharq yulduzi», 2000. №5-6.
21. Hamidov. M. Sh.Xolmirzaevning portret yaratish mahorati // «O`zbek tili va adabiyoti» jurnali, 2000. №4